

**XALQ DOSTONLARINING O'ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHINING
AHAMIYATI.**

Xurramova Dilorom Xamroqulovna

Termez Davlat Universiteti lingvistika yo'nalishi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada xalq dostonlarining o'zbek folklorshunosligida o'rganilishining ahamiyati, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish va boshqalar to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, nashr, tadqiq, inson, xalq, jahon, bastakorlar, san'atshunoslik, fanlar, tarixchilar, afsona, rivoyatlar, urf-odat, filologiya.*

O'zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o'rni, insoniyat tamaddunlariga qo'shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko'rinadi. O'zbek folklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o'tgan asr avvallaridan boshlangan bo'lsa-da, xalq og'zaki ijodini chinakam, har tomonlama o'rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini ko'rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro'y berdi. Ushbu xayrli ishlarning bosh sababchisi mustaqilligimiz bo'ldi.

Folklorshunoslik - xalq ijodi haqidagi fan. Folklorshunoslik. turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelgan. Keyinchalik xalq san'atini (xalq og'zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o'rganuvchi mustaqil va maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urfodat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar 11 asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Maxmud Koshg'ariynit "Devonu lug'otit turk" asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. 18-asr va 19-asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, maktablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga aloqida e'tibor berdilar.

Tilshunosligimizda hozirgacha folklor asarlarining leksik va lingvopoetik xususiyatlari keng qamrovda, jiddiy va yetarli darajada o'rganilmagan. Bilamizki, bu sohadagi qator

dolzarb muommlarning yechimi xalq o'g'zaki badiiy ijodiyoti namunalarining lisoniy va poetik xususiyatlarini barcha janrlar bo'yicha har tomonlama izchil va batafsil o'rganishga bog'liq bo'lganligi uchun keyingi yillarda bu sohada e'tiborga molik bir qator tadqiqotlar yaratildi.

O'zbek tilshunosligida xalq dostonlarining leksikasi va poetikasiga oid hozirgi kungacha amalga oshirilgan ishlar bir qadar salmoqli o'rin egallaydi. Birgina dostonchilik va uning tadqiqi sohasida amalga oshirilgan ishlarining o'zi tahsinga loyiq. Chunki dostonlar-tilimizning ma'naviy ko'zgusi.

Xalq og'zaki ijodida eng yirik janr bo'lgan xalq dostonlari haqiqiy va ideal tarix birlashib, xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini ifodalagan o'tmish yodgorligi".

Xalq dostonlarida, o'zbek tilining leksik qurilishi, so'z va iboralarning semantik qirralari o'z ifodasini topgan. Ular hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalarida turli darajada ishlatiladi.

Ko'pgina olimlarning ilmiy ishlari ham bevosita xalq dostonlari leksikasi va uning tilini jiddiy o'rganishga bag'ishlangan. Ma'lum bo'ladiki, bir qancha qilingan ishlar va kuzatishlar orasida dostonlar tilining shevaga, xalq tiliga va adabiy tilda munosabatini ochishga bag'ishlangan ilmiy tahlillar juda ko'p o'rinni egallaydi, ko'rinadiki, barchasida dostonlar leksik tarkibining turg'un holatini muayyan tarzda ochib berish va tavsiflashga yo'naltirilgan.

Hozirgi davr talablari nuqtayi nazaridan ularni ketma - ket va uzluksiz ravishda amalga oshirmasdan turib mersimizni, ona tilimizning boy va keng qamrovli imkoniyatlarini to'laqonli tasavvur etish qiyin.

Baxshilar xalq dostonlarini biror sozda, ko'p yerlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Xorazm baxshilari esa dostonlarni asosan dutorda, torda ijro etadilar. Ularga g'ijjak va bolomonda sozandalar jo'r bo'ladilar. 30-yillardan boshlab Xorazm baxshilari dostonlarni asosan tor va rubobda kuylay boshladilar. Xorazmda ba'zan epik asarlarni yoki ularning parchalarini garmonda ijro etish hollari ham uchraydi. Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlarning yana bir turi xalfalar deb yuritiladi. Xalfachilik asosan ayollar o'rtasida keng tarqalgan. Masalan, Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova, Anorjon Razzoqova kabi xalfachilikda nom qozonganlar. Xalfalar ko'proq "Oshiq G'arib va Shohsanam", " Oshiq Oydin ", " Asilxon", " Hurliqo va Hamro", " Qumri", " Qissai Zebo", "Tulumbiy", "Zavriyo", "Xirmon dalli" kabi dostonlarni hamda Maxtumquli she'rlarini ijro etganlar. O'zbek dostonchiligida an'anaviy doston kuylash tartibi bor. Odatda dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha kechqurunlari uyushtirilgan. Baxshi taklif qilingan mehmonxonaga barcha tinglovchilar yig'ilib, qo'r tashlab o'tirishgan. Baxshi to'rda o'tirgan, doston kuylash kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Baxshi dastlab bir yoki bir nechta terma kuylagan, asosan, "Nima aytay?" termasi bilan tinglovchilarga murojaat qilgan. So'ng tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko'ra biror doston ijro etiladi. Odatda

doston kuylash tongga ulanadi, o'zbek xalq dostonlarining ko'pchiligi bir kun kuylashga mo'ljallangan. "Alpomish"dek ulkan asarlar ikki va undan ortiq kechalar ijro etilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. Dostonchilik san'ati xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azadovskiy M.K., Istoriya russkoy folkloristiki, t. 1—2, M., 1958—1963;
2. Muzikalnaya folkloristika v Uzbekistane, T., 1963;
3. Zemlya nova L.M., Sovremennaya amerikanskaya folkloristika, M., 1975;
4. Hodi Zarif, O'zbek folkloristikasi tarixidan //O'zbek folklori masalalari, T., 1970;
5. Mirzayev T., Hodi Zarif, T., 1967; Qodirova M., Muzayyana Alaviya, T., 1968. To'ra Mirzayev.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Folklorshunoslik>